



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TAQLIDLARNING PREDMETLIK VA BELGI-XUSUSIYAT MA'NOLARINI MORFOLOGIK FARQLASH IMKONIYATLARI

Shirinova Nilufar Djabbarovna

O'zR JXU dotsenti, filol.f.n.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarini diffuz saqlaydigan taqlidlarning morfologik yo'l orqali farqlash imkoniyatlari tahlil etilgan.

Аннотация:

В данной статье анализируются возможности разграничения значений предметности и качественности в узбекском и английском языках морфологическим способом.

Annotation:

This article analyzes the possibilities of distinguishing the meanings of substance and attributiveness in the Uzbek and English languages through the morphological way.

Kalit so'z va iboralar: predmetlik, belgi-xususiyat, taqlid so'zlar, diffuz so'zlar, darajalanish zanjiri, morfologik imkoniyatlar.

Ключевые слова и фразы: предметность, качественность, подражательные слова, диффузные слова, градуонимическая цепь, морфологические возможности.

Key words and phrases: substance, attributiveness, imitative words, diffusive words, gradual chain, morphological possibilities.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

Taqlidlarning turli – leksik-semantik, derivatsion, morfologik va sintaktik imkoniyatlarini o‘rgangan tilshunoslarning yakdilona qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki, lisoniy tizim(lar)da taqlidlarda substantsiyaning “majmu’yi asmo’ va sifot”, predmetlikning “xilma-xil belgilarning majmu’yi”, belgi-xususiyatning “predmetning bir qirradi” ekanligi yorqin namoyon bo‘ladi [8; 9]. Taq-taq, duk-duk, yalt-yult kabi so‘zlar matndan ajratilgan holda o‘zbek ongida «majmu’yi asmo’ va sifot» sifatida gavdalanadi, ya’ni ma’lum turdagi belgi-xususiyatlar majmuasi ma’lum bir narsa, harakat, holat tasavvurini uyg‘otadi. Chunki biz birovdan «yalt-yult» nima?» deb so‘rar ekanmiz, mana shu «yalt-yult»ni o‘ziga xos substantsiya, narsa, mavjudot, predmetlik deb tasavvur etgan bo‘lamiz. Tilimiz «yalt-yult»ga nima? so‘rog‘ini berdi, lisoniy ongimiz uni «narsa» deb qabul qildi. Lekin bu «narsa» «belgi-xususiyatlarning majmu’yi» sifatida ongimizda gavdalanadi. Shuning uchun taqlidlar leksik-semantik nuqtai nazardan predmetlik va belgi-xususiyat ma’nolari farqlanmaydigan diffuz so‘zlar sifatida baholanishi lozim. Ingliz tilida ham insoniyat nutqi shakllanishning debochasi bo‘lib xizmat qilgan **taqlidlar** (imitation words, imitative words) PM (predmetlik ma’nosi) va BXM (belgi-xususiyat ma’nosi)ni farqlash jarayonida o‘ziga xos o‘ringa ega [1, 129-131; 2, 3-72; 4].

Avvalambor, taqlidlarning ingliz tilshunosligida o‘rganilishi va tasniflanishi yetarli darajada emasligi, ularning nafaqat substantiv yoki attributiv ma’nolarni, balki boshqa lisoniy ma’nolarni ifodalashdagi ishtirokini o‘rganish ham o‘z yechimini kutayotgan masaladir. Chunonchi, aksariyat ingliz tili grammatikasi bo‘yicha ishlarda taqlidlarga umuman murojaat qilinmaganligini, murojaat qilingan sanoqli ishlarda esa asosan taqlidiy so‘zlarning yasalishi hamda semantik-stilistik xususiyatlariga bag‘ishlangan tahlillarni ko‘ramiz [1, 129-131; 5; 6; 7], ularning morfologik, sintaktik funksiyalari esa tadqiq qilinishga muhtojligicha qolmoqda. Shunday bo‘lsa-da, ishimizda mazkur betakror so‘zlar guruhining PM va BXMni morfologik usulda ajratish jarayonidagi o‘rnini mustaqil tahlil qilishga harakat qilinmoqda.

Morfologik tizim leksik sathdan ko‘ra yuksakroq lisoniy mavhumlik bosqichidadir. Shuning uchun nutqiy voqelanishda taqlidlar gap tarkibida kelganda, albatta, shu gap bo‘lagi uchun xos bo‘lgan morfologik shaklga ega bo‘lishi shart va zarur.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

Shunda ham taqlidlar uchun bu qat'iy lisoniy qonuniyat, asosan ega va to'ldiruvchi pozitsiyalarida kelgandagina shartdir. Bu mavqeda kelgan taqlidlar, albatta, son va kelishik shakllariga ega bo'ladi. Misollar:

Qushlarning chug'ur-chug'uri olamni tutib ketdi.

Guldur-shaldir, taraq-turuq o'zgarishsiz davom etadi (A.Qodiriy).

Aniqlovchi vazifasida qo'llanganda taqlidlar aniq morfologik shaklni faqatgina qaratqichli aniqlovchi mavqeyida kelganidagina qabul qiladi:

Chug'ur-chug'urning ovozi olamni tutib ketdi.

Sifatlovchi aniqlovchi, hol vazifasida kelgan taqlidlar, odatda amorf holda keladi:

Dada, menga chiq-chiq soat olib bering (mexanik, chiqillab yuradigan soat).

Tapir-tupur kirib keldi.

Shunda tilda ravishlarni morfologik farqlashga bo'lgan intilishni taqlidlar misolida ko'rish mumkin:

Lo'k-lo'k keldi > lo'killab keldi.

Taqlidlarning kesim vazifasida kelishi (Tevey emiyi jo'r-jo'r (M.Qoshg'ariy); Darvoza taq-taq, kimdir keldi)ning tilimiz uchun siyrakligi va g'ayrioddiylik ham kesim uchun tilimizda morfologik ko'rsatkichlarning, kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlarining shart ekanligi natijasidir. Taqlidlar bu morfologik shakllarni qabul qila olmasligi sababli ular kesim vazifasida kam qo'llaniladi. Taqlid so'zlar kesim mavqeda dastlab fe'l turkumiga o'tib, fe'lning derivatsion tizimiga kirib, keyin qo'llaniladi:

Chilim qur-qur. – Chilim qurillaydi.

Chumchuq chiq-chiq. – Chumchuq chiqillayapti.

Xuddi o'zbek tilida bo'lganidek, ingliz tilida ham taqlidlarning morfologik imkoniyatlari faqat sintaktik pozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda shakllanishi, aniqrog'i tegishli gap bo'lagiga xos bo'lgan morfologik ko'rsatkichlarni hamda sintaktik ma'nolarni voqelantirishi bilan o'lchanadi. Taqlidlarning mazkur jihatlari inglizshunos olimlar tomonidan yetarlicha yoritilmagan bo'lsa-da, ba'zi ishlarda ularning sintaktik imkoniyatlariga haqli baho berilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tojik olimasi Tursunova Feruza o'zining ingliz va tojik tillarida tovushga taqlid soz'larning qiyosiy struktur-semantik tahliliga bag'ishlangan nomzodlik ishida bu betakror unsurlarning gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol hamda



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

kesim mavqeyida kela olishini va bu jihati bilan otlarga yaqin turishini ta'kidlaydi [3, 22]. Bu fikrga to'liq qo'shilgan holda taqlidiy so'zlarning PM va BXMni farqlashda grammatik inparallelizmiga e'tibor qaratamiz:


1. ...the **barking** dogs, the **bellowing**, and **plunging** of the oxen, the **bleating** of sheep, the **grunting** and **squeaking** of pigs, the cries of hawkers, the shouts, oaths, and quarrelling of all sides, the ringing of bells and **roar** of voices, that issued from every public-house... – ega;
2. He heard the **barking** of dogs there [Dickens]. – to'ldiruvchi sifatida PMni;
3. Her **willy nilly** decision-making process often resulted in chaos. – aniqlovchi;
4. The team members worked **willy nilly**, without any clear direction. – tarz holi;
5. The dog **barked** loudly at the mailman. – fe'l vazifasida esa BXMni kuchaytirib kelmoqda.

Ko'rinadiki, taqlidlarning morfologik xususiyatlari ularning sintaktik imkoniyatlari bilan zich bog'langan holda taraqqiy etgan – tegishli pozitsion o'rinlarga xos morfologik indikatorlar (kelishik, shaxs, son, zamon, nisbat, aspekt va h.k.)ning namoyon bo'lishi diffuz, sinkret tabiatning diskretlashishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun taqlidlarda predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarining farqlanishida morfologik va sintaktik usullar bir-biri bilan qorishib ketadi va birlikni tashkil qiladi. Bundan xulosa qila olamizki, ingliz va o'zbek tillarida taqlidlarda predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarining farqlanishi birlashgan morfologik va sintaktik usullarning hamkorligidagina voqelanadi. Bunda leksik usul asosida predmetlik va belgi-xususiyat ma'nolarining farqlanishi yo'q darajada, morfologik usulda ega, to'ldiruvchi, tarz holi va kesim vazifasida interparallel darajalanish qatorini hosil qilishi mumkin, buni quyidagicha ifodalash mumkin:

1-chizma

O'zbek va ingliz tillarida taqlidlarning PM va BXMni farqlashda lisoniy usullar graduonimiyasi*



*LU – leksik usul, MU – morfologik usul, SU – sintaktik usul



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

Xulosa qilib ayta olamizki, taqlidlarda substantsiyaning “majmu’yi asmo’ va sifot”, predmetlikning “xilma-xil belgilarning majmu’yi”, belgi-xususiyatning “predmetning bir qirradi” ekanligi yorqin namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pulatova, Z. Factors For The Development Of Writing Skills Of Law Students In A Modular System.
2. Pulatova, Z. (2020). ASSESSMENT PRINCIPLES, CHARACTERISTICS OF IMPROVING STUDENTS'ASSESSMENT OF WRITING SKILLS IN ENGLISH (EXAMPLE B2 LEVEL). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).
3. Abduazizovna, P. Z. (2025). SUMMATIVE ASSESSMENT STRATEGIES AND THEIR USAGE. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 71(1), 196-201.
4. Abduazizovna, P. Z. (2025). PRINCIPLES OF EFFECTIVE FORMATIVE ASSESSMENT IN EFL/ESL. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 71(1), 202-207.
5. Ikanova, L. (2020). ANALYSIS OF TWO TASKS FROM THE POINT OF PRAGMATICS. Modern trends in linguistics: problem and solutions, 25-26.
6. Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF QILISHDA TA'LIMNING TA'SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(1), 433-439.
7. qizi Ikanova, L. S. (2020). IMPROVING LISTENING SKILLS THROUGH ICT. Bulletin of Namangan State University: Vol, 2(11), 64.
8. Ikanova, L. (2019). Learners' digital literacy of students in language classrooms. Trends in Teaching Foreign Languages: Achievements, Challenges and Solutions, 98-99.
9. Ikanova, L. S. (2019). The impact of materials development, critical pedagogy and lgbt's issue on the language planning and policy. Вестник педагогики: наука и практика, (48), 68-70.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

10. Ikanova, L. (2019). THE IMPACT OF MATERIALS DEVELOPMENT, CRITICAL PEDAGOGY AND LGBT'S ISSUE ON THE LANGUAGE PLANNING AND POLICY. SCIENCE. RESEARCH, DEVELOPMENT, 59-62. 11
11. Khasanova, D., Ulmasbaeva, M., & Ikanova, L. (2019). IT IS TIME TO CHANGE THE SUBJECT MATTER OF ENGLISH AT VOCATIONAL COLLEGE. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 48-52. 12
12. Ikanova, L. (2019). THE IMPACT OF THE MATERIALS DEVELOPMENT TO THE IMPLEMENTATION OF THE LANGUAGE PLANNING AND POLICY. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training, 7-13. 12
13. Иканова, Л. (2024, May). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275). 9
14. Ikanova, L. S. (2024). JAZONI IJRO ETUVCHI MUASSASSALARDA, TA'LIMNI TASHKIL QILISH TAJRIBALARI (AQSH MISOLIDA): Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 7(3), 26-31. 2
15. qizi Ikanova, L. S. (2020). IMPROVING LISTENING SKILLS THROUGH ICT. Bulletin of Namangan State University: Vol, 2(11), 64.
16. Darvishova, G. K. (2023). SHARLOTTA BRONTE IJODIDA AYOLNING IJTIMOIIY MAVQEI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 57-67.
17. Darvishova, G. K. S. B. I., & MAVQEI, A. I. ORIENSS. 2023. № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharlotta-bronte-ijodida-ayolning-ijtimoiymavqei> (дата обращения: 10.10. 2023).
18. Iskandarovna, K. G., & Kenjabayevna, D. G. (2020). The means of image" woman" in the literary world of charlotte bronte. Journal of Critical Reviews, 7(12), 136-139.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

19. Darvishova, G. K. (2023). ШАРЛОТТЕ БРОНТЕ ИЖОД ҚИЛГАН ВИКТОРИЯ ДАВРИ. Innovative Development in Educational Activities, 2, 238-243.
20. Дарвишова, Г. К. (2022). По Педагогическом Мастерстве Учителя Иностранного Языка В Процессе Урока. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3, 122-125.
21. Дарвишова, Г. К. (2022). ШАРЛОТТА БРОНТЕ АСАРЛАРИДА БАДИИЙ МАҲОРАТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 26), 754-757.
22. Дарвишова, Г. К. (2025). ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 71(1), 191-195.
23. Shirinova, N. (2024). DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY OF CADETS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, (54-4).
24. Tulkin, S., Nargiza, S., & Nilufar, S. (2022). ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF ZAHIRIDDIN BABURS POEMS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(02), 42-48.
25. Shirinova, N. (2025). INGLIZ TILI DARSLARIDA HARBIY OLIY TALIM MUASSASALARI KURSANTLARINING OQISH KONIKMASIINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YOLLARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 71(1), 208-212.
26. Shirinova, N. D. (2024). GRADUAL INPARALLELISM IN UZBEK. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, (55-3).
27. Shirinova, N. D. (2024). INPARALLELISM IN ENGLISH. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, (55-3).
28. Ширинова, Н. Д. (2021). ЭЛ-ЮРТ ҲУРМАТИГА САЗОВОР УСТОЗ: Ширинова Нилуфар Джаббаровна, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Тилларни ўрганиш кафедраси доценти, филология фанлари номзоди, доцент. In Научно-практическая конференция.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

-
29. Ширинова, Н. (2010). Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарклаш воситалари: Филол. фан номз.... дисс.
30. Ширинова, Н. (2024). ГРАДУАЛ ПАРАЛЛЕЛИЗМ. Наука и инновация, 2(23), 97-103.